

ONA TILI TA'LIMIDA LUG'ATLARNING O'RNI

**Tangirova Komila O'ralovna**

*Samarqand viloyati Oqdaryo tumani 25-umumiy o'rta ta'lim maktab  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Ushbu maqolada ona tili ta'limida lug'atlarning o'rni hamda o'zbek lug'atchilik tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *lug'at boyligi, lug'atchilik, lug'at birligi, zamonaviy atamalar, imloviy savodxonlik.*

Ona tili ta'limi o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olish, erkin muloqot qila olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ona tili umumta'lim maktablarida yetakchi predmet sanaladi. Bu fan orqali millatimizning bebaho boyligi sanalgan ona tilimiz va uning imlo qoidalari o'rganiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, imloviy savodxonlik nafaqat shaxsiy, balki umummilliy zaruratdir. Negaki, ushbu jarayon ancha murakkab bo'lib u doimo takomillashib bormog'i lozim. Bu jarayonda esa lug'atlar alohida o'rin egallaydi.

Bizga ma'lumki, jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar, islohotlar, yangiliklar bevosita tilda ham o'z aksini topadi. Ayniqsa, o'zbek tiliga mustaqillikka erishgandan so'ng kirib kelgan so'zlarning ma'nosini bilish va keng aholi qatlamiga singdirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Globalashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi<sup>1</sup>.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, tilimiz boy o'tmishga ega. Ayniqsa, tilimizning lug'at tarkibi juda boy va mahsuldor. Lug'atchilik sohasida amalga oshirilgan ishlarning ham ko'lami keng. Lug'atchilik tarixiga nazar tashlasak, boshqa tillarning ham taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan qimmatli lug'atlarimiz mavjud. Bunday lug'atlar qatoriga Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (XI asr) (Unda o'sha davr turkiy tillarining leksikasiga, qisman fonetik va grammatik xususiyatlariga oid qimmatli materiallar berilgan), Al-Zamahshariyning "Muqaddimat ul adab" (XII asr) ( Bu asar arabcha-forscha-turkcha-mo'g'ulcha 4 tilli lug'at bo'lib, undagi turkiy so'zlar XII-XIII asrlardagi O'rta Osiyo turkiy adabiy tilini o'zida aks

<sup>1</sup> A.Hojjiyev, A.Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. –T.: "Sharq", 2001.- 336 b.

ettiradi), “Kitobi majmuo‘ tarjimot turki va ajami va mo‘g‘uli va forsi” nomli 4 tilli lug‘at ( Uning muallifi hozircha noma‘lum. 1245 yilda Misrda tuzilganligi ma‘lum. Lug‘atdagi turkiy til materiallari mo‘g‘ullar hujumi davrida Dashti Qipchoqdan Misrga ko‘chib ketgan qipchoqlar tiliga to‘g‘ri keladi), Abu Hayyonning “Kitob ul idrok lisonul atrok” nomli lug‘at va grammatika kitobi (XIV asr ) (Asarda qipchoq tili xususiyatlari bayon qilinadi, qipchoq tili o‘g‘uz (turkman) tili bilan qisman qiyos qilinadi. Qiyos qilish jarayonida tatar, bulg‘or, uyg‘ur kabi boshqa turkiy tillarga ham murojaat qilinadi), Muhammad Yoqub Chingiy tomonidan yozilgan “Kelurnoma” asari (XVII asr)(Bu “Chig‘atoycha”-forscha lug‘atning XIX asrda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasi Toshkentda, Sharqshunoslik institutida saqlanadi), Muhammad Rizoning “Muntaxab ul-lug‘at” asari (XVIII asr) ( Bu lug‘atda Navoiy asarlarida ishlatilgan arabcha, tojikcha va qisman o‘zbekcha so‘zlarni izohi berilgan. Uning qo‘lyozma nusxalari Toshkentda, Peterburgda saqlanadi), Mexdixonning “ Maboni al-lug‘at va Sangloh” asari (XVIII asr, 1760 y). (Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchisi “Maboni al-lug‘at” yoki “Sarfuh nahv lug‘ati chig‘atoy” deb nomlanadi. Bu qism eski o‘zbek tilining grammatik ocherki hisoblanadi. Ikkinchisi “Sangloh” deb atalgan “Chig‘atoycha”-forscha lug‘atdir).

Sharq olimlari tomonidan yaratilgan lug‘atlar va filologik asarlar o‘zbek tilshunoslari tomonidan chuqur o‘rganilib, ilmiy tavsif qilindi, ayrimlari o‘zbekchaga tarjima qilindi, matnlari nashr qilindi. S.Mutallibov “Devonu lug‘otit turk” asarini arabchadan o‘zbek tiliga tarjima qildi va 3 tom qilib nashr qildidi.

O‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy ona tilimizning leksik boyligini, uslubiy xususiyatlarini fors tili bilan qiyoslab, nazariy jihatdan asoslash maqsadida o‘zining “Muhokamatul –lug‘atayn” nomli asarini yozishga ahd qilgan. Ushbu asarida u o‘z zamondoshlariga ona tilimizni adabiy til bo‘la olish darajasiga yetganligini ko‘rsatish maqsadida uning lug‘at tarkibi keng qamrovli, boy va ixcham badiiy so‘z shakllari va vositalariga ega ekanligini asosli dalillar bilan ko‘rsatib beradi. Navoiy bu fikrlarini isbotlash maqsadida ona tili lug‘at boyligidagi 99 ta fe‘l va ot so‘z turkumiga xos so‘zlarning ma‘nolarini forsiy til bilan qiyoslaydi. U turkiy tilning ko‘pgina jihatdan, ayniqsa, sinonimik, omonimik va boshqa tomondan hatto ustun kelishini ko‘rsatib bergan. Masalan, “yig‘lamoq” so‘zining o‘nga yaqin ma‘nodosh (sinonimga xos) shakllarini misollar orqali tahlil qilib ko‘rsatgan. Buyuk olimning “Muhokamatul-lug‘atayn” nomli asari o‘zbek leksikografiyasida yaratilgan sinonimlar, omonimlar hamda antonimlar lug‘atlarining yaratilishiga ta‘mal toshini qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik tufayli erishilgan iqtisodiy, madaniy, siyosiy sohalaridagi ulkan yutuqlar o‘zbek xalqining boy va qadimiy tilida ham o‘z ifodasini topdi. Bir qator so‘zlar va birikmalar iste‘moldan chiqib ketdi. Shu bilan birgalikda, istiqloq sharoitidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi marketing, diller, menejment kabi yangidan-yangi so‘zlar kirib keldi. Mustabid tuzum davrida o‘zbek tili lug‘at tarkibiga zo‘rma-zo‘raki kiritilgan bir qator so‘zlar mustaqillik davrida o‘zbekcha

muqobili bilan almashtirildi. Masalan, kalendar o'rniga taqvim kanselariya o'rniga devonxona, sekretar o'rniga kotib(a), adres o'miga manzil, protsess o'rniga jarayon, ekonomika o'rniga iqtisod kabi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgan O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etishda ona tilimiz ham katta hissa qo'shmoqda.

O'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o'rganilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda. Demak, "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" kabi lug'atlarning yaratilishi ona tilimizning nufuzini yanada oshiradi, o'zbek tilini o'rganishdagi bir qator qiyinchiliklarning oldini oladi.

"O'z tilini hurmat qilgan ma'rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi"- deydi Prezidentimiz o'z nutqlarida. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillari faol qo'llaniladi. Yoshlarimizning jahon tillarini egallashga bo'lgan ulkan qiziqish va intilishlari davlatimiz rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi ta'lim maskanlarida ingliz, rus, nemis, fransuz, ispan, italyan, arab, fors, turk, xitoy, yapon, koreys, hind va urdu tillari chuqur o'qitilayotgani hammamizga ma'lum. Buning sababi esa, o'nlab tillarni puxta bilgan, jahon ilm-fanining yuksak cho'qqilarini zabt etgan ajdodlarimiz Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Imom Buxoriy, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiylarning ilm yo'lida amalga oshirgan an'nalari davom ettirishdir. Bu borada esa tarjima lug'atlarning o'rni beqiyosdir. Ular boshqa tillarni o'rganishda, o'z tilining imkoniyatlarini to'laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima lug'atlarida bir tilning (tarjima qilinayotgan tilning) lug'aviy birligiga boshqa tilning ma'no jihatdan to'g'ri keladigan ekvivalenti beriladi, o'zga tilning lug'aviy birligi tarjima etiladi, tavsiflanadi. Tarjima lug'atlariga namuna sifatida quyidagi lug'atlarni ko'rsatish mumkin: V.V. Reshetov., «Uzbeksko-russkiy slovar» (Tashkent, 1957 ); Ya.R.Binyaminov, T.Z.Mirsoatov., «Nemischa-o'zbekcha so'zlik» (Toshkent, 1964); J.B.Bronov, X.R.Rahmonberdiyev, X.S. Barnoxjayeva, Ye.A.Anisimov., «Inglizcha-o'zbekcha so'zlik» (Toshkent, 1968); T.Aliqulov, D.Bozorova: «Fransuzcha-o'zbekcha so'zlik» (Toshkent,1973) va boshqalar.

O'zbek leksikografiyasida tarjima lug'atlari ham eng ko'p foydalaniladigan faol lug'atlar qatoriga kiradi. Ayniqsa, ruscha-o'zbekcha lug'atlarning qo'llanish o'rni beqiyosdir. Bu lug'atlarga namuna qilib 5 tomli «Ruscha-o'zbekcha lug'at»ni (Toshkent,1950-1955), bir tomli «O'zbekcha-ruscha lug'at»ni (Moskva, 1959) ko'rsatishi mumkin.

O'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, turli millatlarga mansub vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishlarida tarjima lug'atlar sezilarni ahamiyat kasb etadi.

Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biriga aylangan bugungi kunimizda tilimizning yangidan yangi faol lug'atlarini tuzish va amaliyotga tatbiq etish birlamchi vazifalarimizdan biri bo'lib qolayapti.

Davlatimizning rahbari Shavkat Mirziyoyevning :“...Ayni paytda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz turli ma'lumotlarni asosan Internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, o'zbek tilini keng targ'ib etish bo'yicha ishlarimizni kuchaytirishimiz lozim”[2],degan fikrlari tilshunos olimlarimiz hamda lug'atshunoslarimiz oldiga bir qator mas'uliyatlarni vazifalarni qo'yadi.Zero, o'z uyining haqiqiy sultoniga aylangan ona tilimiz yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir”<sup>2</sup>.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Hojiyev, A.Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. –T.: “Sharq”, 2001.-336 b.[1]
2. Prezident-o'zbek tili nufuzini oshirish to'g'risida. Gazeta.uz.2019/10/22[2]
3. Шоабдурахмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
5. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
6. 10.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. – Москва: Рус тили, 1981.
7. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент: Фан, 1976.
8. Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. – Тошкент: Шарк, 1999.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.- Тошкент:Ўқитувчи, 1978.
10. Nazihovna Y. G. et al. CREATING A PLATFORM USING HTML, CSS AND JAVA SCRIPT METHODS AND STRENGTHENING EDUCATION WITH THIS STEAM //Confrencea. – 2022. – Т. 5. – №. 5. – С. 17-38.

<sup>2</sup> Президент-o'zbek tili nufuzini oshirish to'g'risida. Gazeta.uz.2019/10/22

11. Nazikhovna G. Y. Strengthening the Integrated Steam of Technologies in the Environment of Information Technologies and Computer Programs //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 8. – С. 72-80.
12. Юнусова, Г. Н. (2013). Компьютерно-интерактивное и индивидуально-групповое обучение предметов путём создания автоматизированной компьютерной программы. Молодой ученый, (12), 88-91.
13. Юнусова, Г. Н. (2020). Методика подготовки в школу дошкольников новейшими технологиями и компьютерными программами. Интерактивная наука, (8 (54)), 7-15.

**Internet saytlari:**

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [WWW.gazeta.uz](http://WWW.gazeta.uz)